



XORIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

PARTAV NODIRIY SHE'RLARIDA QUSH TIMSOLINING BADIY TALQINI

Afzuna Nazarova Rahimovna,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
afzuna_nazarova@mail.ru

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15183640>

Annotatsiya: Ushbu maqolada mashhur afg'on shoiri Partav Nodiriy she'riyatidagi qush obrazining ramziy ma'nosi o'rganiladi. Uning ijodida qush obrazi keng tarqalgan bo'lib, u erkinlik, orzu, umid, ruhiy parvoz, kabi turli ma'nolarni ifodalaydi. Maqolada qush obrazi ozodlikka intilayotgan lirik qahramonning kechinmalari bilan bog'langan she'rlardan misollar keltirilgan. Partav Nodiriy she'riyatida Simurg' obrazining talqiniga ham e'tibor berilgan. Muallif ijodida sharq adabiyoti va mifologiyasidagi Simurg'ning an'anaviy obrazi – ko'p asrlik umid va intilishlar timsoli bo'lgan afsonaviy qush bilan o'xshashlik ega. Shuningdek, Partav Nodiriyning qush obraziga murojaati uning shaxsiy kechinmalari, zamonasi, ijtimoiy va adabiy-madaniy muhit bilan bog'liqligi ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: Partav Nodiriy, ramz, qush, erkinlik, orzu-umid, Semurg', ijtimoiy muammolar.

Аннотация: В статье исследуется символическое значение образа птицы в поэзии известного афганского поэта Партава Надири. Образ птицы широко распространен в его творчестве, представляя различные значения, такие как свобода, мечта, надежда и духовный полет. В статье приведены примеры стихотворений, в которых образ птицы связан с переживаниями лирического героя, стремящегося к свободе. Поэзия Партава Надири также уделяет внимание интерпретации образа Симурга. Творчество автора перекликается с традиционным образом Симурга в восточной литературе и мифологии — мифической птицы, являющейся символом многовековых надежд и чаяний. Показано также, что обращение Партава Надири к образу птицы связано с его личным опытом, временем, социальной, литературной и культурной средой.

Ключевые слова: Партав Надирий, символ, птица, свобода, мечта и надежда, Семург, социальные проблемы.

Abstract: The article examines the symbolic meaning of the image of a bird in the poetry of the famous Afghan poet Partav Nadiri. The image of a bird is widespread in his work, representing various meanings, such as freedom, dream, hope and spiritual flight. The article provides examples of poems in which the image of a bird is associated with the experiences of the lyrical hero striving for freedom. The poetry of Partav Nadiri also pays attention to the interpretation of the image of the Simurgh. The author's work echoes the traditional image of Simurgh in Eastern literature and mythology - a mythical bird symbolising centuries-old hopes and aspirations. It is also shown that Partav Nadiri's appeal to the image of a bird is associated with his personal experience, time, social, literary and cultural environment.

Keywords: Partav Nadiri, symbol, bird, freedom, dream and hope, Semurgh, social problems.

Shoirilar she'rlarida qush timsoli keng tarqalgan va turli ma'nolarda qo'llanilgan. Qushlar erkinlik, go'zallik, xabarchi, ilhom, qayg'u kabi qator tushunchalarni



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

ifodalab keladi. Partav Nodiriy dariyzabon adabiyotda zamonaviy she'riyatning eng ko'zga ko'ringan namunalarni yaratishda jiddiy qadam tashlagan adiblardan biridir.

Partav Nodiriy she'rlarida tabiiyat manzaralari bilan bir qatorda qush obrazida ham ramziylik mavjud. Tabiatan qushlar qanotli mavjudot, xohlagan joyiga uchishga qodir, erkinlikni sevuvchi jonivorlardir. An'anaviy she'riyatda "jon", "ko'ngil" ma'nolarida keng ishlatilgan bu timsol Partav Nodiriy she'riyatda o'zgacha talqin qilinadi. Shoir she'rlarida "qush" timsolida ozodlikka erishish istagidagi lirik qahramon – o'zini tasvirlagan. Shoir o'zini "**sim to'rli qafas**" – **qamoqxona** panjaralari ortidagi kunlarini har kuni ozodlik chiqish, qush kabi baland-balandlarga uchishni orzu qilib o'tkazishini o'z misralarida bayon etgan:

Bu xonada

G'am to'rlarida

Bir qush haqida o'ylayman

Simdan to'qilgan o'sha chegarada

Balandparvoz qilish tajribasini

Kunlab

O'z hayoli tajriba maydonida

Takrorlaydi.

در این اتاق

در این کلافه اندوه

به پرندۀ یی اندیشم

در آن حصار بافته از سیم

که تجربه بلند پرواز را

روزها

در تجربه گاه ذهن خویش

تکرار می کند

"Kul darvozasiga qulf", Yuqoriga uchish tajribasi, 19.

Boshqa bir misol:

Ey sen, mitti qush

*Changalzor qushining nihoyatda siniq
qanotini o'yla*

Boshini o'z patlari ostiga berkitgan

*Va bog'larni tomosha qilish uchun
ko'zlar yumilgan*

*Qanday bo'ldiki inson shu qadar
beganalashuv tili bilan*

Baland qarag'ayning qomati qo'shig'ini

O'z-o'zingizga aytasan.

توی ای پرندۀ کوچک

شکسته بالترین مرغ جنگل پندار

که سر به زیر پر خویشتن فرو داری

و چشم ها ز تماشای باغ ها بسته

چگونه شد که چنین با زبان غربت

انسان

سُرود قامت کاج بلند هستی را

برای «خویشتن خویش» می خوانی

"Kul darvozasiga qulf", Mitti qush, 37.

Sharq mamlakatlari adabiyoti, xususan, fors adabiyotida qushlar obrazi silsilasida Semurg' ramziy obrazi ham mavjud. Semurg' afsonaviy qush, mifologik obraz sifatida necha yuz yillik orzu-umidlar timsoli bo'lib xizmat qiladi. Boshqa tillarda, masalan, arab tilida Simurg' "anqo", "humo", "qaqnus" kabi ekvivalentlariga ega. Shoir-u yozuvchilar zamonlar osha bu obrazga qiziqqan holda o'z asarlariga



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

kiritib borishgan. Rivoyatlarga ko'ra, qushlar shohi Semurg' uzoq Qof tog'ida yashar va hamma narsadan ogoh, hamma narsani bilar ekan. Qachondir qushlar dunyosida tartibsizlik bo'y ko'rsatib, vaziyat yomonlashadigan bo'lsa Semurg' yordamga shoshar va hammasini o'z joyiga qo'yar ekan. Shunday bo'libdiki, Semurg' g'oyib bo'lib qolibdi. Havotir va umidsizlikka tushgan qushlar o'ylab-o'ylab bir qarorga kelishibdi. Ularning o'zlari Hudhud rahbarligida Semurg'ni topgani yo'lga o'tlanishibdi. Semurg'ning makoniga 7ta tubsiz vodiyan o'tib borilar ekan. Yo'lning olisligi va mashaqqatiga bir qancha qushlar dosh berolamay halok bo'lishadi, ba'zilari ortga qaytib ketishadi. Oxir-oqibat, 30ta qush Qof tog'iga yetib borishadi va ularning o'zlari Semurg' ekanliklarini tushunib yetishadi. Semurg' so'zi ham forschadan tarjima qilganda, Se – o'ttiz, mo'rg' – qush ma'nolarini anglatadi. Galadagi har bir qush ma'lum bir ma'noda odamlarning timsoli sifatida gavdalantiriladi. Semurg' barcha savollarga javoblarni o'zida mujassam etgan, mukammallik va donolik timsolidir shu bilan birga haqiqatning asl mohiyati va Tangi Taoloning borligi ramzi deb qaraladi.

Partav Nodiy she'riyatida Semurg' obrazi ma'nosi quyidagi she'r orqali anglashiladi:

*Har Xudosiz kemamizga kapitan bo'lishni
xohlamas*

هر بی خدا به کشتی ما ناخدا
مخواه

Nur yo'lida bir-birini bilishni xohlamas

در راه نور همدم نا آشنا
مخواه

Taqdirni g'urur qal'asinining Semurg'i bo'l

سیمرغ قلعه های غرور زمانه
باش

کام دلت ز پستی همت روا
مخواه

Ey quyosh ibodatxonasidan yuz o'girgan

ای رو گرفته از حرم پاک
آفتاب

Ko'ngil shishasiga zang tushirma

زنگار را به شیشه دل آشنا
مخواه

Tong guli ochilgan oxirgi lahzagacha

تا آخرین دمی که شگوفد گل
شفق

*Xalqning dastagidan Haqning shamshirini
ayirma*

شمشیر حق ز قبضه مردم جدا
مخواه

“Uzumga qasam”, Simurg', 10



XORIJY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

Partav Nodiriyning teran ma'no va timsolga to'la bu she'rida inson borlig'ining iymon-e'tiqod, g'urur, haqiqatga intilish, xalqqa xizmat qilish kabi muhim jihatlari ko'zda tutilgan. Shoir ma'naviy qadriyatlarga ega bo'lmagan, xalqni to'g'ri yo'lga boshlay olmaganlarni rad etadi va odamlarning bir-birini tushunishiga, bir to'xtamga kelishiga yordam beradigan bilim va ma'naviyatni izlashga chaqiradi. Bu she'rdagi simurg shunchaki afsonaviy qush emas, timsoldir: She'rda u insonning ma'naviy qudratini, qiyinchiliklarni yengib o'tish, yuksak marralarni zabt etish qobiliyatini ifodalaydi. She'rda u xalq himoyachisi, adolat uchun kurashuvchi timsolida ham namoyon bo'lgan ifodalaydi.

Shoir she'rlaridagi Semurg' obraziga yuklagan poetik ma'no she'rdan she'rga borgan sari teranlashib boradi. Bu she'rlarni o'qish asnosida she'rlardagi tadrijiylikning o'ziga xos darajaga yetganligini ko'rishimiz mumkin:

<i>Oyoqda turibman</i>	<i>ايستاده ام به پای</i>
<i>Iymonning bor kuchi bilanman</i>	<i>من با تمام قوت ایمان</i>
<i>Menda minlab qalin o'rmon</i>	<i>در من هزار جنگل انبوه</i>
<i>Baland o'smoqda</i>	<i>قامت کشیده است</i>
<i>Qarg'alar galasiga ehtiyojmasman</i>	<i>در من نیاز خیل کلاغان نیست</i>
<i>Ammo butun borlig'im ko'zdir</i>	<i>اما تمام هستی من چشم است</i>
<i>Sendan bundanam yaxshiroqsan</i>	<i>تا زان چکاد برتر هستی</i>
<i>Tunsiz quyoshli bir kun</i>	<i>یک روز آفتابی بی شام</i>
<i>Simurg'ning shahidlik lahzalari</i>	<i>سیمرغ لحظه های شهادت</i>
<i>O'sha himmatli qanotlarining yorqin soyalari</i>	<i>آن سایه های روشن بال نجیب خویش</i>

Mening keng ko'ksimga qo'yning *بر سینه ستبر من اندازد*

“Kul darvozasiga qulf”, Shahidlik lahzalari semurg'i, 46.

Shoironi bu zalolat o'chog'idan faqatgina iymonning kuchi tik ushlab turibdi. Hayot qiyinlashgan bir pallada dushmanlik ortiqcha. Shoir qayg'u-sitamlersiz kunlarni kutadi. Bunga “Semurg'ning shahidligi” – (she'rdan keb chiqib – N.A.) bilan yetishish mumkin.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, Partav Nodiriy she'riyatidagi qush obrazi serqirra va ramziylikka yo'g'rilgan. Unda erkinlik va ma'naviyatga intilishdan tortib, dard va yolg'izlik kechinmalarigacha bo'lgan inson borlig'ining turli qirralari aks etadi. Nodiriyda yangicha mazmun kasb etib, haqiqat izlanish, ma'naviy barkamollik timsoliga aylangan Simurg' obrazi ayniqsa ahamiyatlidir.

Shoir she'rlarida eng ko'p ko'zga chalinadigan holat bu tushkunlikning ustuvorligidir. Bu xalqning ijtimoiy holati, jabr, zulmning izlari, parokandalik,



XORIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

notinchlikning asoratidir. Shoir bu holatdan ba'zan umidsizlikka tushadi, yorug' kelajakni orzusini keskir so'zlari bilan ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Partav Nodiriy, "Kul darvozasiga qulf". Kobul, 1990.
2. Partav Nodiriy. "Uzumga qasam". Kobul, 1991.